



UO'K: 632:72.1.

TAKRORIY EKINLARDA ENTOMOFAGLARNING SHAKLLANISHI MONITORINGI

Sattorov Asqar Butayorovich 

b.f.n. katta ilmiy xodim

Xalimov Raxmatilla Raimovich 

kichik ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ITI Surxondaryo mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida oltinko'z entomofagining takroriy ekin sifatida ekilayotgan yeryong'oq maydonlariga migratsiyasi (ko'chishi), rivojlanishi va zichligini o'rganish bo'yicha olib borilgan monitoring natijalari keltirilgan. Unga asosan oltinko'z entomofagi populyatsiyalari iyul oyining uchinchi o'n kunligidan boshlab takroriy ekilgan yeryong'oq biotipiga ko'chishi boshlanib, avgust oyidan, ya'ni, o'simliklarning shonalash davrida miqdoriy jihatdan sonining sezilarli darajada ko'payishi va o'simlikning gullash-dukkaklash fazalarida ya'ni, butun sentyabr oyi davomida uning zichligi yuqori darajada saqlanib qolishi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida takroriy muddatda ekilgan yeryong'oq o'simligi oltinko'z entomofagining tabiiy ko'payish manbasi ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Entomofag, biotip, tuxum, lichinka, oltinko'z.

Abstract. This article presents the results of monitoring the migration, development and population density of the goldeneye entomophage on Polyax araxis, planted as a replanted crop in the conditions of the Surkhandarya region. Based on the obtained data, it was established that the populations of the golden-eye entomophage began to migrate to the re-planted araxis biotype from the third decade of July, and from August, that is, during the budding period, the number significantly increased, and the density remained high during the phases of glow and pod formation, that is, throughout September. This, in turn, indicates that the replanted araxis is a natural breeding ground for the goldeneye entomophage.

Keywords: Entomophage, biotype, egg, larva, goldeneye.

Аннотация. В данной статье представлены результаты мониторинга миграции, развития и плотности населения энтомофага златоглазка на полях арахиса, высаженного как повторно высаженная культура в условиях Сурхандаринской области. На основании полученных данных установлено, что популяции энтомофага златоглазка начали мигрировать на повторно





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

высаженный биотип арахиса с третьего декады июля, а с августа, есть в период бутонизации, их численность значительно увеличилась, и плотность оставалась высокой в течении фаз цветения и образования стручков, то есть на протяжении всего сентября. Это, в своей очереди, указывает на то, что повторно высаженный арахис является естественным источником размножения энтомофага златоглазка.

Ключевые слова: Энтомофаг, биотип, яйцо, личинка, златоглазка.

KIRISH

Surxondaryo viloyati g'oz biotipida 2005 yildan boshlab o'simlikxo'r qandala zararkunandasining keyinchalik g'oz qandalasi nomi bilan qayd etilgan yangi turi aniqlandi [4]. Ammo, uzoq muddat 2017 yilgacha, ya'ni, olimlarimiz tomonidan bu hasharot populyatsiyalarining hududimizga kirib kelguncha insektitsidlarga bardoshli bo'lib qolganligi aniqlanib, ilmiy asoslangan qarshi kurash usullarini joriy qilinguncha bo'lgan davrgacha ko'p martalab kimyoviy vositalarning qo'llanilishi mintaqada foydali hasharotlarning tabiatdagi salmog'ining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'lgan [4].

Bugungi kunda foydali entomofaglarning nufuzini oshirishning tabiiy manbasini o'rganish amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Ushbularni hisobga olib oltinko'z entomofagining rivojlanishini o'rganish maqsadida takroriy ekin sifatida ekilgan yeryong'oq maydonlarida kuzatuv ishlari olib borildi.

Oltinko'zlar Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikaning tabiiy sharoitida keng tarqalgan. O'zbekistonda 11 turi aniqlangan. Oltinko'zlar yetuk zoti tillasimon och yashil tusli juda nozik hasharotlar hisoblanadi. Qanotlari yoyilganda 19 dan 55mm. ga yetadi [1].

Urg'ochilari endigina tashlagan tuxumlari och yashil tusli bo'ladi, keyin esa asta-sekin qorayadi. Oltinko'z qurti gavdasining oldi va keyingi tomoni ixcham bo'lib tez yurishga mo'ljallangan. Bunda uning ko'krak qismida joylashib yaxshi rivojlangan oyoqlari yordam beradi. Tusi och yashildan – och sariqqacha o'zgarib turadi. Ko'krak va qorin segmentlarida tananing yonlarida uchi ilmoqli yirik tuklar bilan qoplangan juft bo'rtiklari rivojlangan. Lichinka yelkalarida mumsimon g'ubordan iborat qincha bo'ladi. Yapaloq boshidagi uzunchoq, o'roqsimon egilgan yuqori jag'lari o'ljani tutib olishga moslashgan. Pastki jag'lari yuqorisiga zichlashib yopiq nay hosil qiladi. Shu naycha orqali xo'jayin tanasiga hazm qilish shirasini yuboradi va o'lja ichki a'zolarini mazkur nay orqali so'rib oziqlanadi. Lichinkalar 3 yoshni o'tagach g'umbakka aylanadi.

Oltinko'z lichinkalarigina yirtqich hayot kechirishadi. Juda hammaxo'r bo'lib, bo'g'imoyoqlilarning 70 dan ziyod turlari bilan, shu jumladan kanalarning 11 turi bilan oziqlanadi. Rivojlanish davomida bitta lichinka 300 tagacha shira, o'rgimchakkana va tunlamlarning tuxumlarini yo'qotadi. O'zbekiston sharoitida 4-5 marta avlod berib ko'payadi [3].





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqot ishlari viloyatning Jarqo'rg'on tumani "Oqtepa" hududida takroriy ekin sifatida ekilgan yeryong'oq maydonlarida olib borildi. Oltinko'z zichligi yeryong'oq o'simligining vegetatsiya davrida rivojlanish fazalari bo'yicha har 10 ta namuna tanlab olinib har bir namunadan 10 tadan o'simlik tahlili qilindi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Oltinko'z entomofagining yeryong'oq biotipiga ko'chib o'tishi iyul oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab uchrab boshladi.

Yeryong'oqning rivojlanish fazalarining oltinko'z entomofagi zichligiga ta'siri.

t/r	Oltinko'z entomofagi rivojlanish fazalari	Yeryong'oqning rivojlanish fazalari							
		chinbarg		shonalash		gullash-dukkaklash			pishish
		20.07. 2025	28.07. 2025	15.08. 2025	25.08. 2025	10.09. 2025	20.09. 2025	30.09. 2025	10.10. 2025
1	Tuxumlar soni, dona	0,7	1,2	4,2	11,6	23,6	32,1	19,1	5,7
2	Lichinkalar soni, dona	-	0,6	1,4	3,8	9,1	12,7	6,3	2,3

Ilova: 10 tup o'simlikdagi o'rtacha soni, dona.

Iyul oyining oxiriga kelib oltinko'z zichligida ko'payish kuzatilib boshladi. Tuxumlarning o'rtacha soni 1,2 donani va lichinkalari soni 0,6 donani tashkil etdi. Yeryong'oq biotipida oltinko'z tuxum va lichinkalari zichligining sezilarli darajada o'sishi avgust oyining ikkinchi yarmida kuzatilib o'rganilayotgan o'simliklarda o'rtacha soni mos ravishda 4,2 va 1,4 donani va avgust oyining uchinchi o'n kunligi oxirida yanada ko'payib 11,6 va 3,8 donaga yetganligi qayd etildi. Bu paytda yeryong'oq to'liq shonalash davriga kirgan bo'lib uning biotipida shiralar, tripslar, o'rgimchakkana, qandalalar kabi hashoratlar makon topganligi bilan izohlash mumkin. Yeryong'oq biotipida oltinko'z zichligining eng yuqori ko'rsatkichi yeryong'oq o'simligining qiyg'os gullash va hosil tugish davrida kuzatilib davomiyligi sentyabr oyida to'liq saqlanib qoldi. Zichligidagi o'sish karrali miqdorda ko'payib sentyabr oyining ikkinchi o'n kunligi oxirida o'rganilgan o'simliklarda tuxumlarining o'rtacha soni 32,1 va lichinkalari soni esa o'rtacha 12,7 donani tashkil etdi. Oltinko'z zichligining keskin oshishini qulay ob-havo va yeryong'oq biotipida so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarning turi va zichligining ortishi hamda serpusht nasl berishi uchun me'yori muhit vujudga kelganligi bilan izohlash mumkin. Yeryong'oq ekinining pishish davrida, ya'ni oktabr oyi birinchi o'n kunligida oltinko'z zichligining keskin pasayishi qayd etildi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

XULOSA

Yeryong'oq biotipi oltinko'z entomofagining rivojlanishi, serpusht nasl berishi, kelgusi yil uchun qishlab qoluvchi bo'g'inlarining ko'plab zahirasining yaratilishida hamda tabiat balansini boyitishda muhim makon bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev Sh.T., Sulaymonov O.A. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari.- Toshkent -2019.-376 b.
2. Xo'jayev Sh.T., Urazboyev A.A., Shokirova G.N. "G'o'za g'alla " almashlab ekish tizimida agrobitsenoz munosabatlarning shakllanishi. Toshkent-2016.-83 b.
3. Xo'jayev Sh.T., Yuldoshev F.E., Obidjanov D.A., Shokirova G.N., Mamatov K.Sh., Sattarov N.R. G'alladan keyin ekiladigan o'rindosh ekinlarni zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha tavsiyanoma. – Toshkent-2014.-92 b.
4. Xo'jayev Sh.T., Sattarov N.R., Musayev D.M. Zararli qandala hasharot haqida nimalarni bilmoq kerak. Toshkent – 2018. – 6-24 b.